Iqtisodchi olimlar tomonidan depozit operatsiyalarining bank faoliyatidagi o'rnini va ularning iqtisodiy mazmuni turlicha talqin qilingan. Xususan, klassik iqtisodiy nazariyalarda depozitlar bank resurslarini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida qaralsa, zamonaviy ilmiy qarashlarda ular moliyaviy vositachilik mexanizmining muhim elementi sifatida e'tirof etiladi. Ayrim tadqiqotchilar depozit siyosatining samaradorligini bank likvidligi va rentabelligi bilan bog'lasa,



boshqalari mijozlar ishonchi, foiz siyosati va raqamli texnologiyalarning ta'sirini ustuvor omil sifatida baholaydilar. Shu jihatdan depozit operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni tizimli ravishda tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

O'zbekiston bank tizimida olib borilayotgan islohotlar ham tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, bank xizmatlarini raqamlashtirish, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish, omonatlarning jozibadorligini kuchaytirish hamda moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish orqali depozit operatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mavjud sharoitda depozitlarning muddat tarkibini takomillashtirish, aholi jamg'armalarini bank tizimiga yanada faolroq jalb etish hamda banklar resurs bazasining barqarorligini oshirish masalalari mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklari depozit operatsiyalarini rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish, ularning iqtisodiy mohiyatini ochib berish hamda zamonaviy bank amaliyotida depozit siyosatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, depozit operatsiyalarining bank resurs bazasi barqarorligini ta'minlashdagi o'rni va ularni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari depozit operatsiyalarini rivojlantirish masalalari bank nazariyasi va amaliyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, ushbu masala ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ayniqsa, depozitlarning bank resurs bazasini shakllantirishdagi o'rni, depozit siyosatining samaradorligi hamda omonatchilar xulq-atvoriga ta'sir etuvchi omillar yuzasidan turli ilmiy-nazariy qarashlar shakllangan.

Amerikalik iqtisodchi olim Frederic S. Mishkin banklarning moliyaviy vositachilik faoliyatini tadqiq etib, depozitlar tijorat banklari resurslarining asosiy manbai ekanligini ta'kidlagan [1]. Olimning fikricha, depozit operatsiyalarining rivojlanishi foiz stavkalari, inflyatsiya darajasi hamda bank tizimiga bo'lgan ishonch bilan chambarchas bog'liq.

Amerikalik iqtisodchi olimlar Douglas W. Diamond va Philip H. Dybvig banklarning likvidlikni boshqarishdagi rolini o'rganib, depozitlar bank faoliyatining asosiy moliyaviy manbasi ekanligini ilmiy jihatdan asoslaganlar [2]. Ularning nazariyasiga ko'ra, omonatchilar ishonchi va depozitlarni himoya qilish tizimi depozit operatsiyalarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Britaniyalik iqtisodchi olim M. Hashem Pesaran iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirish bo'yicha tadqiqotlarida bank depozitlari hajmiga ta'sir etuvchi omillarni qisqa va uzoq muddatli baholashda avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL) modelining afzalliklarini asoslab bergan [3]. Ushbu yondashuv depozit operatsiyalarining rivojlanish tendensiyalarini baholash imkonini beradi.

Rossiyalik iqtisodchi olim O.I. Lavrushin bank resurslari va depozit siyosati masalalarini tadqiq etib, depozit operatsiyalari tijorat banklari faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini qayd etgan [4]. Olimning fikricha, depozit bazasining barqarorligi banklarning kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Rossiyalik iqtisodchi olim G.G. Korobova bank resurslarini boshqarish masalalarini o'rganib, depozit operatsiyalarini rivojlantirishda foiz siyosati, xizmatlar sifati va mijozlar ehtiyojlariga mos depozit mahsulotlarini taklif etish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan [5].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Sh.Z. Abdullayeva bank ishi va depozit siyosati masalalarini tadqiq etib, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashda depozit operatsiyalarini rivojlantirish muhim omil ekanligini qayd etgan [6]. Uning fikricha, bank xizmatlari sifati va omonatchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish depozitlar hajmining o'sishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Sh.X. Elmirzayev bank menejmenti va risklarni boshqarish masalalarini o'rganib, depozit operatsiyalarini rivojlantirishda bank tizimiga bo'lgan ishonch, moliyaviy barqarorlik va samarali risk-menejment muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan [7].

Yuqoridagi ilmiy-nazariy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari depozit operatsiyalarining rivojlanishi foiz siyosati, omonatchilar ishonchi, makroiqtisodiy barqarorlik, bank xizmatlari sifati va depozitlarni himoya qilish mexanizmlari bilan uzviy bog'liq. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda depozit operatsiyalarini rivojlantirishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish va ularni ekonometrik usullar asosida baholash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari depozit operatsiyalarini rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlarni o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlari, tijorat banklari faoliyatiga oid statistik ma'lumotlar



hamda bank amaliyotidagi mavjud tendensiyalar tahlil qilindi. Shuningdek, depozit operatsiyalarining bank resurs bazasi barqarorligiga ta'siri va ularni rivojlantirish omillari nazariy va amaliy jihatdan baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlashda depozit operatsiyalari muhim iqtisodiy instrumentlardan biri hisoblanadi. Depozit operatsiyalari orqali banklar jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jalb qiladi hamda ushbu resurslardan kreditlash, investitsiyalash va boshqa aktiv operatsiyalarni moliyalashtirishda foydalanadi. Shu jihatdan depozitlar tijorat banklarining asosiy resurs bazasini shakllantiruvchi eng muhim manba sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra, depozitlar bank va mijoz o'rtasidagi muddatlilik, qaytarilish va to'lovlilik tamoyillariga asoslangan moliyaviy munosabatlarni ifodalaydi. Bunda mijoz o'z mablag'larini ma'lum shartlar asosida bankka joylashtiradi, bank esa ushbu mablag'lardan foydalanish evaziga foiz to'laydi hamda ularning saqlanishini kafolatlaydi. Mazkur jarayon iqtisodiyotda bo'sh pul mablag'larini qayta taqsimlash mexanizmini shakllantirib, moliyaviy vositachilik faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida xizmat qiladi.

Depozit operatsiyalarining bank faoliyatidagi o'rni, avvalo, resurs bazasini shakllantirish bilan belgilanadi. Tijorat banklari resurslarining asosiy qismi aynan depozit mablag'lari hisobidan tashkil topadi. Depozit bazasi qanchalik barqaror va diversifikatsiyalashgan bo'lsa, bankning likvidlilik darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ayniqsa, uzoq muddatli depozitlar banklarga uzoq muddatli kreditlar ajratish imkoniyatini kengaytiradi hamda aktiv va passiv operatsiyalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bank amaliyotida depozitlar odatda talab qilib olinguncha depozitlar, muddatli depozitlar va jamg'arma depozitlariga ajratiladi. Talab qilib olinguncha depozitlar mijoz tomonidan istalgan vaqtda yechib olinishi mumkin bo'lgan mablag'lar hisoblanib, ular bank uchun nisbatan arzon resurs manbai hisoblanadi. Biroq ushbu mablag'larning beqarorligi bank likvidlilikiga ma'lum darajada xavf tug'dirishi mumkin. Muddatli depozitlar esa oldindan belgilangan muddat asosida jalb qilinadi va bank uchun barqarorroq resurs manbai hisoblanadi. Jamg'arma depozitlari aholining uzoq muddatli jamg'armalarini bank tizimiga jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Depozit operatsiyalari tijorat banklarining likvidlilik va moliyaviy barqarorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yetarli hajmdagi depozit resurslariga ega banklar o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, depozit bazasining kengligi banklarning tashqi qarz mablag'lariga qaramligini kamaytiradi. Natijada bank tizimining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligi ortadi.

Depozit operatsiyalarining yana bir muhim jihati ularning bank rentabelligiga ta'siri bilan bog'liq. Banklar tomonidan jalb qilingan depozit mablag'lari kredit operatsiyalariga yo'naltiriladi va foizli daromad shakllantiriladi. Bunda depozitlar bo'yicha to'lanadigan foiz stavkasi bilan kreditlar bo'yicha olinadigan foiz stavkasi o'rtasidagi farq bank foydasining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli depozit siyosatini samarali tashkil etish banklarning moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar rivojlanishi depozit operatsiyalarining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Xususan, mobil ilovalar orqali onlayn omonatlar ochish, masofaviy bank xizmatlari va avtomatlashtirilgan depozit mahsulotlari depozit bozorida raqobatni kuchaytirmoqda. Bu esa tijorat banklaridan mijozlarga qulay, xavfsiz va yuqori daromadli depozit xizmatlarini taklif etishni talab qilmoqda. Shunday qilib, depozit operatsiyalari tijorat banklari faoliyatining asosiy tayanch yo'nalishlaridan biri bo'lib, ular bank resurs bazasining barqarorligini ta'minlash, kreditlash hajmini kengaytirish, likvidlilikni mustahkamlash va bank tizimining umumiy moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari depozit operatsiyalarining nazariy asoslari banklarning moliyaviy vositachilik faoliyati, likvidlilikni boshqarish hamda resurs bazasini shakllantirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiy adabiyotlarda depozit operatsiyalarining mohiyati turli ilmiy maktab va yondashuvlar asosida talqin etilib, ularning bank faoliyatidagi o'rni bo'yicha turli nazariy qarashlar shakllangan.

Klassik iqtisodiy nazariyalarda depozitlar tijorat banklari resurslarining asosiy manbai sifatida baholanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, banklarning asosiy vazifasi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jamlash va ularni iqtisodiyot tarmoqlariga qayta taqsimlashdan iborat hisoblanadi. Shu sababli depozit operatsiyalari moliyaviy vositachilik mexanizmining asosiy elementi sifatida qaraladi.

Zamonaviy bank nazariyalarida esa depozit operatsiyalarining likvidlilik yaratishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Xususan, iqtisodchi olimlar Douglas W. Diamond va Philip H. Dybvig tomonidan ishlab chiqilgan Diamond–Dybvig modeli [2] banklarning qisqa muddatli depozitlarni uzoq muddatli kreditlarga aylantirish orqali iqtisodiyotda likvidlilik yaratishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Mazkur nazariyaga ko'ra, banklar depozitlar yordamida mijozlarning likvid mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, shu bilan birga investitsion faoliyatni moliyalashtirish imkonini yaratadi. Biroq bank aktivlari va majburiyatlari muddatlari o'rtasidagi nomutanosiblik bank xavflarini yuzaga keltirishi mumkinligi ham qayd etiladi.



Mazkur nazariy qarashlarda depozitlarning bank tizimidagi barqarorlikni ta'minlashdagi roli ham muhim o'rin egallaydi. Diamond va Dybvig nazariyasiga ko'ra, mijozlar ishonchining pasayishi ommaviy depozitlarni yechib olish holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli depozitlarni sug'urtalash tizimi va davlat tomonidan bank tizimini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari moliyaviy barqarorlikning muhim omili sifatida baholanadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda depozit operatsiyalarining qiymati va bank faoliyati samaradorligiga ta'siri yanada kengroq o'rganilmoqda. Xususan, Patrick Bolton, Ye Li, Neng Wang va Jinqiang Yang tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda depozitlar banklar uchun arzon moliyaviy resurs manbai ekanligi hamda ular bank kapitali va rentabelligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan [8]. Shu bilan birga, depozit oqimlarining beqarorligi banklar faoliyatida tavakkalchiliklarni kuchaytirishi mumkinligi qayd etilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida ham tijorat banklari depozit operatsiyalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, mahalliy tadqiqotlarda depozit bazasini mustahkamlash, uzoq muddatli omonatlar ulushini oshirish, bank xizmatlarini raqamlashtirish va aholi mablag'larini bank tizimiga faol jalb qilish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida ko'rib chiqiladi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda raqamli bank xizmatlari, mobil ilovalar va fintech texnologiyalarining depozit operatsiyalariga ijobiy ta'siri alohida ta'kidlanmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, depozit operatsiyalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ichki va tashqi omillarga ajratiladi. Ichki omillarga bankning foiz siyosati, xizmat sifati, mijozlar bilan ishlash samaradorligi, raqamli infratuzilma va bank obro'si kiradi. Tashqi omillar sifatida esa inflyatsiya darajasi, aholi daromadlari, Markaziy bank siyosati, moliya bozori barqarorligi hamda iqtisodiy islohotlar e'tirof etiladi (1-jadval).

1-jadval

Depozit operatsiyalariga oid ilmiy-nazariy qarashlar taqqoslanishi¹¹

Olimlar	Ilmiy yondashuv	Asosiy mazmuni
D. Diamond va P. Dybvig	Likvidlilik nazariyasi	Banklar depozitlar orqali iqtisodiyotda likvidlilik yaratadi
F. Mishkin	Moliyaviy vositachilik nazariyasi	Depozitlar bank resurs bazasining asosiy manbai hisoblanadi
P. Bolton, Y. Li, N. Wang, J. Yang	Zamonaviy bank nazariyasi	Depozitlar bank qiymati va rentabelligini oshiruvchi omil
Mahalliy iqtisodchi olimlar	Amaliy-bank yondashuvi	Depozit bazasini kengaytirish bank barqarorligini ta'minlaydi

Shunday qilib, ilmiy-nazariy qarashlar tahlili depozit operatsiyalarining tijorat banklari faoliyatidagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Zamonaviy yondashuvlarda depozit operatsiyalari nafaqat bank resurslarini shakllantirish vositasi, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi, likvidlilikni boshqaruvchi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi muhim mexanizm sifatida baholanmoqda.

“Eskrou” hisobvaraqlarida saqlanadigan pul mablag'larini omonatlarni kafolatlash obyekt sifatida qabul qilishda depozit sug'urtasi va eskrou hisobvaraqlariga oid zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bank tizimi barqarorligini ta'minlash hamda investorlar manfaatlarini himoya qilish masalalariga tobora kuchayib borayotgan e'tiborni ko'rsatmoqda. Xususan, Ekimova, Nazarchuk va Denisova tomonidan 2019-yilda olib borilgan tadqiqotda Rossiya ipoteka va uy-joy qurilishi tizimida maxsus eskrou hisobvaraqlarini joriy etishning iqtisodiy va huquqiy asoslari tahlil qilingan. Mualliflar qurilish sektorida developerlar tomonidan mablag'larning maqsadsiz ishlatilishi hamda ulushdorlar mablag'larini yo'qotish xavfi mavjudligini asosiy muammo sifatida baholaydilar. Tadqiqotda eskrou hisobvaraqlaridagi mablag'larni davlat depozit sug'urtasi tizimi orqali himoyalash investorlar ishonchini oshirishning muhim omili sifatida ko'rsatilgan. Ayniqsa, Rossiya Deposit Insurance Agency tomonidan 10 million rublgacha kafolat berilishi tizimning barqaror ishlashiga xizmat qilishi ta'kidlangan. Mazkur tadqiqotning muhim jihati eskrou tizimining huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini kompleks tarzda yoritganidir. Shu bilan birga, unda ulushli qurilishdagi xavflarni kamaytirish mexanizmlari O'zbekiston amaliyoti uchun ham dolzarb ekanligi namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqot depozit operatsiyalariga oid muhim nazariy va amaliy jihatlarni yoritib bergan bo'lib, kelgusida empirik statistik tahlillar bilan boyitilishi uning ilmiy ahamiyatini yanada oshirish imkonini beradi.

Matveeva tomonidan 2020-yilda amalga oshirilgan tadqiqotda eskrou hisobvaraqlarining qurilish sur'atlariga ta'siri o'rganilgan. Muallifning fikricha, eskrou tizimining joriy qilinishi developerlar faoliyatini bank nazorati ostiga o'tkazib, qurilish bozoridagi shaffoflikni oshiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, eskrou hisobvaraqlari investorlar xavfsizligini kuchaytirish bilan birga “aldangan investorlar” muammosini sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, eskrou mablag'lariga depozit sug'urtasi mexanizmlarining qo'llanilishi aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashi qayd etilgan. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda qurilish hajmi, bank

1 ¹¹Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

kreditlash darajasi va investitsion faollik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan. Shu jihatdan maqola qurilish iqtisodiyoti va bank sug'urtasi mexanizmlarini integratsiyalashgan holda o'rganishi bilan ajralib turadi. Tadqiqot natijalari muhim ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini bergan bo'lib, kelgusida uzoq muddatli statistik ma'lumotlar bazasining kengayishi ushbu xulosalarning ishonchligi va amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Alam, Sivarajah va Bhatti tomonidan 2021-yilda olib borilgan tadqiqot depozit sug'urtasi tizimlarining bank barqarorligiga ta'sirini xalqaro miqyosda baholashga qaratilgan. Tadqiqotda depozit sug'urtasi mavjud bo'lgan mamlakatlarda bank tizimiga ishonch yuqoriroq shakllanishi hamda bank yugurishi xavfining kamayishi ilmiy asoslangan. Mualliflar sug'urtalangan depozitlarning omonatchilar xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, yetarli nazorat mexanizmlari mavjud bo'lmagan sharoitda moral hazard xavfi yuzaga kelishi mumkinligi qayd etilgan. Mazkur tadqiqot eskrou hisobvaraqlarini sug'urtalashning nazariy asoslarini tushuntirib berishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning kuchli tomoni katta hajmdagi xalqaro ma'lumotlar bazasiga tayanganidadir. Eskrou hisobvaraqlariga oid tahlillar ushbu mexanizmning muhim jihatlari ochib bergan bo'lib, kelgusida mazkur yo'nalish bo'yicha chuqurroq tadqiqotlar olib borish yangi ilmiy natijalarga erishish imkonini yaratadi.

Sardana va Singhania tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan bibliometrik tahlilda depozit sug'urtasi bo'yicha so'nggi ellik yillik ilmiy tadqiqotlar evolyutsiyasi o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, so'nggi yillarda eskrou hisobvaraqlari, elektron pullar va fintech texnologiyalari bilan bog'liq sug'urtalash masalalari ilmiy adabiyotlarda eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biriga aylangan. Mualliflar iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish zamonaviy depozit sug'urtasi tizimlarining asosiy trendiga aylanganini qayd etadilar. Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda depozit sug'urtasi tadqiqotlarining metodologik rivojlanishi, asosiy ilmiy markazlar va eng faol tadqiqotchilar haqida tizimli ma'lumotlar berilgan. Bibliometrik yondashuvning keng qo'llanganligi tadqiqotning kuchli tomoni bo'lsa-da, amaliy eskrou mexanizmlarining yetarli darajada chuqur o'rganilmaganligi ayrim cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Martin, Puri va Ufier tomonidan 2026-yilda e'lon qilingan tadqiqot bank inqirozi sharoitida depozit sug'urtasining omonatchilar xatti-harakatlariga ta'sirini empirik jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari sug'urtalangan depozitlarning banklardan kamroq chiqib ketishini hamda omonatchilar sug'urta mavjud bo'lgan banklarga ko'proq ishonch bildirishini ko'rsatgan. Mualliflar trust va eskrou hisobvaraqlaridagi sug'urtalash mexanizmlarining murakkabligi bank tizimida alohida muammo sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati eskrou mablag'larini kafolatlashning bank likvidiligi va moliyaviy barqarorlikka ta'sirini amaliy ma'lumotlar asosida tushuntirib berganidadir. Ayniqsa, bank inqirozi davridagi omonatchilar xatti-harakatlari chuqur tahlil qilingani tadqiqotning muhim jihati hisoblanadi. Shu bilan birga, tadqiqot asosan AQSH bank tizimi misolida olib borilgani sababli uning natijalarini boshqa mamlakatlarga to'liq tatbiq etishda ayrim cheklovlar mavjud.

Depozit portfeli diversifikatsiyasida stress-test modeli bankning turli iqtisodiy va moliyaviy shoklarga chidamliligini baholashda eng muhim zamonaviy instrumentlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bank depozit bazasi qanchalik diversifikatsiyalashgan bo'lsa, likvidlilik riski va depozitlarning chiqib ketishi xavfi shunchalik past bo'ladi. Ayniqsa, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz, COVID-19 pandemiyasi davri hamda 2023-yilda ayrim AQSH banklarida yuzaga kelgan inqirozlardan so'ng depozit portfeli uchun stress-test modellari ilmiy va amaliy jihatdan yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda stress-test modeli asosan uchta asosiy komponentga tayangan holda quriladi: depozit portfelining tarkibiy diversifikatsiyasi, likvidlilik shoklari va makroiqtisodiy ssenariylar. Adrian, Morsink va Schumacher tomonidan IMF doirasida ishlab chiqilgan yondashuvda bankning depozit bazasi insured (kafolatlangan) va uninsured (kafolatlanmagan) segmentlarga ajratiladi hamda har bir segmentning inqiroz paytidagi xatti-harakati alohida modellashtiriladi. Tadqiqot natijalari kafolatlangan depozitlar ancha barqarorligini, yirik va kafolatlanmagan omonatlar esa stress davrida tezroq chiqib ketishini ko'rsatadi. Shu sababli depozit portfeli diversifikatsiyasi nafaqat omonatchilar soni, balki omonat hajmi, muddati va kafolat maqomi bo'yicha ham baholanishi kerakligi ta'kidlanadi.

Montesi, Papiro va Fazzini tomonidan taklif etilgan reverse stress-testing modeli depozit portfelidagi eng xavfli nuqtalarni aniqlashga qaratilgan. Ularning metodologiyasida bankning qaysi darajadagi depozit chiqib ketishida likvidlilik inqirozi yuzaga kelishi hisoblab chiqiladi. Mazkur modelning muhim jihati shundaki, u oddiy prognoz emas, balki "bankni qaysi holat yiqitishi mumkin?" degan savolga javob beradi. Tadqiqotda geografik va sektorlararo diversifikatsiya yuqori bo'lgan banklar stress sharoitida ancha barqaror ishlashi empirik jihatdan asoslangan.

Taskinsoyning stress-test va Value-at-Risk (VaR) metodologiyasi bo'yicha ishlari esa depozit portfelidagi risklarni kvantitativ baholashga alohida e'tibor qaratadi. Muallif Markowitz portfel nazariyasini bank depozitlari bilan bog'lab, diversifikatsiya orqali likvidlilik riskini sezilarli darajada kamaytirish mumkinligini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda stress ssenariylari sifatida foiz stavkalarining oshishi, inflyatsiyaning kuchayishi, ommaviy



depozitlarni yechib olish hamda bank reytingining pasayishi kabi omillar qo'llaniladi.

So'nggi tadqiqotlarda sun'iy intellekt va deep learning asosidagi stress-test modellariga ham katta e'tibor berilmoqda. Islam va Sultana tomonidan ishlab chiqilgan CVaR (Conditional Value-at-Risk) modeli bank likvidliligi va depozitlarning chiqib ketish ehtimolini real vaqt rejimida prognozlash imkonini beradi. Ushbu model oddiy statistik yondashuvlarga qaraganda murakkab shoklarni yaxshiroq aniqlashi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, depozit portfeli tarkibi notekis bo'lgan banklarda bunday modellar yuqori aniqlik beradi.

Ilmiy adabiyotlarda depozit portfeli diversifikatsiyasining asosiy ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar eng ko'p qo'llanadi: yirik omonatchilar ulushi, muddatli va talab qilib olinadigan depozitlar nisbati, valyuta tarkibi, sektorlar bo'yicha taqsimot hamda sug'urtalangan va sug'urtalanmagan depozitlar ulushi. Stress-test jarayonida aynan shu indikatorlar asosida bankning likvidlilik bosimiga bardoshliligi baholanadi.

O'zbekiston bank tizimi uchun ham bunday model muhim ahamiyatga ega. Chunki bank resurs bazasida ayrim yirik omonatchilar ulushining yuqoriligi depozit konsentratsiyasi riskini oshiradi. Agar 200 mln so'mgacha bo'lgan omonatlar davlat tomonidan kafolatlanib, ushbu miqdordan yuqori qismi bo'yicha risk bank zimmasiga yuklatilsa, stress-test modellarida aynan yirik omonatlar oqimining o'zgarishi markaziy indikatorga aylanishi mumkin. Bu esa banklarni depozit bazasini kengroq diversifikatsiya qilishga, ya'ni ko'proq mayda va o'rta omonatchilarni jalb qilishga undaydi.

Banklararo depozitlar ulushini kamaytirish masalasi so'nggi yillarda bank tizimi barqarorligi, likvidlilik riski va moliyaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ayniqsa, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz, COVID-19 davridagi likvidlilik bosimi hamda 2023-yilda ayrim yirik banklarning inqirozi banklarning qisqa muddatli va o'zaro bog'liq resurslarga haddan tashqari tayanishi katta tizimli xavf tug'dirishini ko'rsatdi. Shu sababli zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda banklararo depozitlar ulushini kamaytirish va barqaror depozit bazasini shakllantirish bank siyosatining muhim strategik yo'nalishi sifatida baholanmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda banklararo depozitlar odatda yuqori volatillikka ega resurs sifatida tavsiflanadi. Reale tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy oqim modeli shuni ko'rsatadiki, banklararo bozor likvidlilik yetishmovchiligi davrida eng tez qisqaradigan segment hisoblanadi. Banklar bir-biriga bo'lgan ishonchni yo'qotgan paytda interbank resurslari keskin kamayadi va bu domino effekti orqali butun tizimga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli bankning resurs bazasida interbank depozitlari ulushining yuqori bo'lishi tizimli likvidlilik riskini oshiruvchi omil sifatida qaraladi.

Li va Lai tadqiqotlari ham banklararo qarzlarning ortishi bank likvidlilik riskini sezilarli darajada kuchaytirishini empirik jihatdan asoslaydi. Mualliflar tijorat banklari o'z faoliyatini ko'proq mijoz depozitlari hisobidan moliyalashtirganda likvidlilik barqarorroq bo'lishini, interbank resurslariga tayanish esa inqiroz paytida resurs bazasining keskin qisqarishiga olib kelishini ko'rsatadi. Ayniqsa, qisqa muddatli banklararo mablag'lar yuqori "funding fragility" manbai sifatida talqin qilinadi.

Jiang va Fan tomonidan banklararo tarmoq risklari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa banklararo bog'liqlikning kuchayishi moliyaviy yuqumli riskni (financial contagion) oshirishi aniqlangan. Ularning modellarida bir bankdagi likvidlilik muammosi boshqa banklarga interbank majburiyatlari orqali juda tez tarqalishi mumkinligi ko'rsatiladi. Shu sababli zamonaviy prudensial nazorat tizimlari banklararo operatsiyalar konsentratsiyasiga limit qo'yishni tavsiya etmoqda.

Yevropa bank tizimi bo'yicha Macchiati va hammualliflar olib borgan tadqiqotlar ham interbank bozoridagi yuqori bog'liqlik tizimli likvidlilik xavfini kuchaytirishini tasdiqlaydi. Mualliflar ayniqsa kichik va o'rta banklar yirik banklarga haddan tashqari bog'lanib qolgan holatlarda bozor stressi keskinlashishini qayd etadilar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mijoz depozitlari ulushi yuqori bo'lgan banklar inqiroz davrida nisbatan barqaror ishlagan.

Meller va Soons tomonidan ECB doirasida olib borilgan so'nggi tadqiqotlarda markaziy bank likvidligi va interbank bozorlariga ortiqcha tayanish uzoq muddatda banklarning mustaqil likvidlilik boshqaruvini zaiflashtirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shu sababli banklar uchun eng maqbul model sifatida diversifikatsiyalashgan va asosan chakana depozitlarga tayanuvchi resurs bazasi tavsiya qilinadi.

Markaziy Osiyo va postsovet davlatlari tajribasini o'rgangan tadqiqotlarda ham banklararo depozitlar ulushining yuqoriligi moliyaviy barqarorlikka xavf sifatida baholanadi. Demeuova va hamkorlari bank depozit siyosati bo'yicha ishlanmalarida bank resurs bazasini diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli aholi omonatlari ulushini oshirish va interbank resurslariga qaramlikni kamaytirish zarurligini alohida ta'kidlaydilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklari depozit operatsiyalari bank tizimi resurs bazasining barqarorligini ta'minlovchi asosiy moliyaviy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Depozitlar banklarning kreditlash salohiyatini kengaytirish, likvidlilikni qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotda moliyaviy vositachilik faoliyatini samarali tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Shu bois depozit operatsiyalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy bank tizimi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.



Ilmiy-nazariy qarashlar tahlili depozit operatsiyalarining iqtisodiy mohiyatiga nisbatan turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi. Klassik iqtisodiy maktab vakillari depozitlarni bank resurslarini shakllantirish vositasi sifatida baholagan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlarda ularning bank barqarorligi, likvidlilik yaratish va moliyaviy xavflarni boshqarishdagi o'rni alohida ta'kidlanmoqda. Ayniqsa, Diamond-Dybvig modeli depozitlarning bank tizimida likvidlilikni ta'minlashdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan bo'lsa, keyingi tadqiqotlar depozit sug'urtasi tizimining bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashdagi rolini yoritib berdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, depozit operatsiyalarining samaradorligi ko'p jihatdan banklarning foiz siyosati, xizmat sifati, raqamli infratuzilmasi hamda omonatchilar ishonchiga bog'liq. Zamonaviy sharoitda raqamli bank xizmatlari va fintech texnologiyalarining rivojlanishi depozit operatsiyalarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Onlayn omonatlar, mobil ilovalar orqali depozitlarni boshqarish va masofaviy bank xizmatlari mijozlar uchun qulaylik yaratib, banklar o'rtasidagi raqobatni yanada kuchaytirmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, banklararo depozitlar ulushining yuqoriligi bank tizimida likvidlilik riski va moliyaviy yuqumli xavfni kuchaytiradi. Inqiroz davrlarida interbank resurslari eng tez qisqaruvchi mablag' manbasi bo'lgani sababli banklarning ushbu resurslarga haddan tashqari tayanishi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy ilmiy qarashlarda barqaror resurs bazasini shakllantirish uchun chakana va uzoq muddatli depozitlar ulushini oshirish eng samarali yondashuv sifatida baholanmoqda. Shu bois banklararo depozitlar ulushini kamaytirish banklarning likvidlilik barqarorligini mustahkamlash, tizimli risklarni pasaytirish va bank sektorining inqirozlarga chidamliligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. – 11th Edition. – Pearson Education, 2016. – P. 221–284. URL: <https://www.pearson.com>
2. Diamond D.W., Dybvig P.H. Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity // *Journal of Political Economy*. – 1983. – Vol. 91, No. 3. – P. 401–419. DOI: <https://doi.org/10.1086/261155>
3. Pesaran M.H., Shin Y., Smith R.J. Bounds Testing Approaches to the Analysis of Level Relationships // *Journal of Applied Econometrics*. – 2001. – Vol. 16, No. 3. – P. 289–326. DOI: <https://doi.org/10.1002/jae.616>
4. Лаврушин О.И. *Банковское дело*. – Москва: КНОРУС, 2022. – С. 186–214.
5. Коробова Г.Г. *Банковское дело*. – Москва: Магистр-ИНФРА-М, 2021. – С. 152–179.
6. Abdullayeva Sh.Z. *Bank ishi*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. – 356 b.
7. Elmirzayev Sh.X. *Bank menejmenti*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 304 b.
8. Bolton P., Li Y., Wang N., Yang J. Banking on Deposits: Maturity Transformation without Interest Rate Risk // *Journal of Finance*. – 2023. – Vol. 78, No. 3. – P. 1461–1499. DOI: <https://doi.org/10.1111/jofi.13234>

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100